SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## 2024- YIL YANVAR

# SIRDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI



# SIRDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO‘RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

## 2024- yil 1-fevral holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

| | |
|---|---|
| **Guliston sh.** | **377** |
| **Mirzaobod tumani** | **104** |
| **Sirdaryo tumani** | **95** |
| **Yangiyer sh.** | **76** |
| **Guliston tumani** | **72** |
| **Boyovut tumani** | **69** |
| **Sayxunobod tumani** | **67** |
| **Xovos tumani** | **59** |
| **Oqoltin tumani** | **49** |
| **Sardoba tumani** | **41** |
| **Shirin sh.** | **37** |

2024- yilning 1- fevral holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 1046 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya’ni 377 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarning 36,0 % Guliston shahrida joylashgan.




**Qurilish korxonalari soni, birlikda**

Shuningdek, Guliston shahrida 377 ta (viloyat bo‘yicha ularning jami soniga nisbatan 36,0 %), Mirzaobod tumanida – 104 ta (9,9 %) qurilish korxonalari mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko‘rsatkichga ega.

# 2024- yilning yanvar oyida hududlar kesimida qurilish ishlari

*hajmi mlrd. so'mda va o'sish sur'ati*




2024- yilning yanvar oyida, Sirdaryo viloyatida jami 318,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilga nisbatan 198,2 % ni tashkil etdi.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

*o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan, % da, mlrd. so'm*



# 2024- yilning yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 86,3 % yoki 275,0 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**128,9** mlrd. so‘m

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 31 881,7 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 30,2 % ni tashkil etdi.

**46,9 %**

**44,5 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 48 320,3 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 45,8 % ni tashkil etdi.

**122,3** mlrd. so‘m

**23,8** mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 25 287,2 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 24,0 % ni tashkil etdi.

**8,6 %**

*Ma‘lumot uchun:* qurilish faoliyati bu – o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

## 2024- yilning yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

**mlrd. so‘mda**

| | 2023- yil | 2024- yil | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **91,0** | **275,0** | **100,0** |
| Guliston sh. | 32,9 | 65,3 | 23,7 |
| Shirin sh. | 3,4 | 6,2 | 2,3 |
| Yangiyer sh. | 6,5 | 9,6 | 3,5 |
| Boyovut | 5,2 | 5,3 | 1,9 |
| Guliston | 6,1 | 6,0 | 2,2 |
| Mirzaobod | 14,1 | 135,9 | 49,4 |
| Oqoltin | 3,7 | 3,2 | 1,2 |
| Sardoba | 1,9 | 8,1 | 2,9 |
| Sayxunobod | 3,1 | 3,2 | 1,2 |
| Sirdaryo | 7,7 | 22,9 | 8,3 |
| Xovos | 6,4 | 9,3 | 3,4 |

2024- yilning yanvar oyida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Mirzaobod tumani (135,9 mlrd. so‘m), Guliston shahri (65,3 mlrd. so‘m), Sirdaryo tumani (22,9 mlrd. so‘m) va Yangiyer shahrida (9,6 mlrd. so‘m) qayd etildi.

## Yillar kesimida yangi qurilish ishlari

*jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so‘m*

| 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2024- y. |
|---|---|---|---|---|
| 82,0 | 97,3 | 101,4 | 91,0 | 275,0 |
| 110,6 % | 113,0 % | 102,1 % | 72,4 % | 3,0 m. |

# 2024- yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari




**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo‘jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo‘ljallangan obyektlar kiritiladi.




**123,2**
**mlrd. so‘m**

**Bino va inshootlar qurish**




**189,3**
**mlrd. so‘m**

**Fuqarolik obyektlarini qurish**




**5,9**
**mlrd. so‘m**

**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari**

2024- yilning yanvar oyida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 38,7 % ulushni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 59,5 % ulushni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 5,4 m. ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 1,8 % ulushni va 2023- yilga nisbatan 54,4 % ni tashkil etdi.

## 2024- yilning yanvar oyida
## bino va inshootlar qurilish ishlarini asosiy ko ‘rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo ‘yicha*

**8,1** mlrd. so‘m
7,2 m.

**Yirik qurilish tashkilotlari**




**86,4** mlrd. so‘m
93,6 %

**Kichik korxona va mikrofirmalar**




**28,7** mlrd. so‘m
126,2 %

**Norasmiy sektor**




***Jami bino va inshootlarni qurish* - 123,2 *mlrd. so‘m***

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,5 % ni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 5,5 % punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2023- yilga nisbatan 10,9 % punktga kamayib 70,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilga nisbatan 5,4 % punktga ko‘payib, 23,3 % ni tashkil etdi.

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish faoliyati bo‘yicha o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi”** ko‘rsatkichi qo‘llaniladi.

# 2024- yilning yanvar oyida bino va inshootlar qurilishi




*Ma'lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Xovos tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 76,8 % ), Sardoba tumani (66,4 %) va Boyovut tumani (66,2 %) da kuzatildi.




Xovos tumani




Sardoba tumani




Boyovut tumani

## 2024- yilning yanvar oyida fuqarolik obyektlarini qurish ishlarini asosiy ko ‘rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo ‘yicha*

**120,5** mlrd. so‘m
2524,7 m.

**Yirik qurilish tashkilotlari**




**68,8** mlrd. so‘m
198,8 %

**Kichik korxona va mikrofirmalar**




***Jami fuqarolik obyektlarini qurish* - 189,3 *mlrd. so‘m***

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 63,7 % ni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan 63,6 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 36,3 % (63,6 % punktga kamaydi).

**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo‘llari, ko‘chalar, ko‘priklar va tunnellar, temir yo‘llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug‘orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og‘ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

# 2024- yilning yanvar oyida fuqarolik obyektlarini qurish




*Ma'lumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 80,6 % ), Shirin shahri (56,3 %) va Sirdaryo tumani (52,2 %)da kuzatildi.




Mirzaobod tumani




Shirin shahri




Sirdaryo tumani

## 2024- yilning yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarini asosiy ko‘rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo‘yicha*

**0,3** mlrd. so‘m ▲ 0,9 %

**Yirik qurilish tashkilotlari**

**5,6** mlrd. so‘m ▲ 52,2 %

**Kichik korxona va mikrofirmalar**







***Jami ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari* - 5,9 *mlrd. so‘m***

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Qolgan 95,1 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2023- yilga nisbatan 88,4 % punktga ko‘paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo‘yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog‘ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o‘z ichiga oladi.

# 2024- yilning yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




*Ma'lumot uchun:* Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Guliston tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 9,1 % ), Oqoltin tumani (6,1 %) va Boyovut tumanida (5,2 %) kuzatildi.




Guliston tumani




Oqoltin tumani




Boyovut tumani

# 2024- yilning yanvar oyida korxonalar turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so‘mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

## Jami hajmga nisbatan ulushi




| Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
|---|---|---|
| 2023- yil bilan solishtirganda – **111,9** m. | 2023- yil bilan solishtirganda – **116,8** % | 2023- yil bilan solishtirganda – **126,2** % |

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

*jamiga nisbatan ulushi*




**2023- y.**




**2024- y.**

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 128,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilga nisbatan 111,9 m. ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 39,8 % ga ko‘payib, 40,5 % ni tashkil etdi.

**Xo‘jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

***Jami yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi* – 128,9 *mlrd. so‘m***

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

*oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m*



# 2024- yilning yanvar oyida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar

***Hududlar kesimida***






*Ma’lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Mirzaobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 80,5 %), Sardoba tumanida (66,4 %) va Sirdaryo tumanida (10,4 %) qayd etildi.

## *Jamiga nisbatan ulushi*



Mirzaobod tumani



Sardoba tumani



Sirdaryo tumani

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

*jamiga nisbatan ulushi*




**2023- y.**




**2024- y.**

2024- yilning yanvar oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 50,5 % to‘g‘ri kelib, 2023- yilga nisbatan 36,0 % punktga kamaydi.

Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilga nisbatan 116,8 % ni tashkil etgan holda 160,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

***Jami kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi* – 160,8 *mlrd. so‘m***

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

*oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m*



# 2024- yilning yanvar oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlari

***Hudadlar kesimida***






*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahriga (70,3 mlrd. so‘m), Mirzaobod tumaniga (26,2 mlrd. so‘m), Sirdaryo tumaniga (17,0) to‘g‘ri keldi.

## *Jamiga nisbatan ulushi*




Guliston shahri




Mirzaobod tumani




Sirdaryo tumani

## 2024- yilning yanvar oyida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

*jamiga nisbatan ulushi*




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 9,0 % yoki 28,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 126,2 % ga yetdi.

Shundan 23,2 mlrd. so‘mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to‘g‘ri kelib, 2023- yilga nisbatan 133,9 %, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 0,6 mlrd. so‘mni va 71,5 %, yakka tartibdagi turar-joylarni ta’mirlash ishlari 4,9 mlrd. so‘mni va 107,0 % tashkil etdi.

## Norasmiy sektor qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

*oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m*



# 2024- yilning yanvar oyida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

***Hududlar kesimida***



*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Sirdaryo tumanida (7,9 mlrd. so‘m), Guliston shahrida (3,8 mlrd. so‘m) va Xovos tumanida (3,2 mlrd. so‘m ) qayd etildi.




## *Jamiga nisbatan ulushi*




Sirdaryo tumani




Guliston shahri




Xovos tumani

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Davlat mulkchilik tashkilotlar tomonidan jami 10,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik tashkilotlar tomonidan esa 307,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,3 % va 96,7 % ni tashkil etdi.



***Ma'lumot uchun:*** nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Mirzaobod tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,4 %), Xovos tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 98,4 %) va Yangiyer shahrida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 97,6 %) qayd etildi.

# USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta’mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o‘zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta’minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o‘rnatish, devorlarni ko‘tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o‘ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko‘rsatadi yoki ish jabhasini ta’minlaydi, ularni qabul qiladi va to‘lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlari** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog‘liq chuqur qidiruv burg‘ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo‘yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug‘ullanuvchi burg‘ulash tashkilotlarini o‘z ichiga oladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi**
**Tel. 67 236-70-00 (2020)**